

MUSTAQILLIK DAVRI DRAMATURGIYASI

Sabrinaz Davletnazarova Ernazarovna

O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali

Saxna va san'at dramaturgiyasi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik davri dramaturgiyasi, dramaturgiyaning rivojlanishi va yangilanishi, Istiqlol dramaturgiyasida shakliy izlanishlar, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlarning bugungi dramaturgiya taraqqiyotiga jiddiy ta'siri haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: mustaqillik davri, dramaturgiya, estetik qarashlar, shakliy izlanishlar.

Kirish:

Dramaturgiyaning takomillanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu borada ayniqsa tarixiy mavzudagi sahna asarlarning ko'payganligini alohida takidlash kerak. Tarixga munosabatning o'zgarganligi, buyuk ajdodlarimizning badiiy, ilmiy va ma'naviy-ma'rifiy merosini qadrlash, tarixiy manbalarni o'rganish sababli xalqimiz o'zligini tushunish jarayonini boshidan kechirdi. Ayniqsa Amir Temur, Ahmad al-Farg'oniy, Mashrab singari murakkab tarixiy shaxslar to'g'risida rang-barang janrlarda turli shakllardagi sahna asarlari dunyoga keldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

O'zbek milliy tafakkuri, estetik qarashlari tizimida sodir bo'lgan yangilanishlar hozirgi dramaturgiya taraqqiyotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. O. Yoqubovning "Bir koshona sirlari", Usmon Azimning "Bir qadam yo'l", Erkin Samandarning "Arabmuhammad Bahodirxon", Ilhom Hasanning "Bir kam dunyo", Abdulla A'zamning "Dugohi Husayniy", "Jek London hikoyasidan so'ng" kabi asarlari hozirgi o'zbek dramaturgiyasida erishilgan yutuqlardan bo'ldi.

Istiqlol dramaturgiyasida shakliy izlanishlar, ijodiy tajribalar bir zum ham to'xtagan emas. Dramaturglar sanog'iga yetib bo'lmas hayotiy ko'rinishlar shu holatlarda harakat qiladigan qahramonlar tabiatida ham jiddiy evrilishlar yasashi mumkinligini nozik his qilgan tarzda drama-versiya, drama-vaziyat kabi yangi ifoda shakllarini o'ylab topganlarki, bu hoi asarlarning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlagan.

She'riyat va nasr haqida mustaqillikkacha bo'lgan yaqin o'tmishdagi estetik yuksakliklarga yetibgina qolmay, undan balandroq cho'qqilarni egallash imkoniyati paydo bo'lganligi ayon haqiqat bo'lsa, dramaturgiya bobida shu kungacha erishilgan sahnaviy yuksaklikka yetib borilmayotganligi achinarlidir.

Natijalar:

Binobarin, milliy adabiyotimiz uchun haq gapni aytish badiiy ijodning oddiy talabiga aylanib qoldi. Bugun adabiyot zarur gapni, dolzarb masalani insonning taqdiriga bog'lab, ta'sirli yo'sinda ifodalash lozimligiga odatlanib bormoqda. Milliy dramaturgiyada esa hozirgacha kerak gapni yalang'och yo'sinda, keskin tarzda aytish fazilat sanab kelinmoqda. Dramatik tur o'zbek adabiyotiga kirib kelganiga bir asr bo'ldi.

Ilk dramatik asar sifatida tan olingan Behbudiyning "Padarkush" asari 1911 yilda yozilgandi. Yuz yillik tarix va tajribaga ega bo'lgan bu o'zbek dramaturgiyasi o'tgan asrning boshi va ikkinchi jahon urishi vaqtini hisobga olmaganda doimo ham boshqa adabiy turlardan sustroq takomillashgan. Bu susayish ayniqsa o'tgan asrning "turg'unlik davri" deb atalgan 70 80 va mustaqillikning ilk yillarida aniq seziladi. Bunday sustkashlikning muayyan obyektiv va subyektiv sabablari ham bor.

Muhokama:

Avvalo, shuni achinish bilan ta'kidlash mumkinki, adabiyotimizda faqat dramaturgiya bilan shug'illanadigan maxsus ijodkorlar juda kam. Borlari ham tezda shuhrat topib kashfiyot darajasidagi sahna asarlari yaratib, teatrlarning doimiy hamkoriga aylanib ketavermaydilar. Ikkinchidan, mabodo, shunday talantli drama yaratilib, sahnalashtirilsa ham unga tomoshabinni jalb qilish masalasi tug'iladi. Uchinchidan bozor iqtisodiyoti sababli dramaturg o'z asari bilan boyib ketayotgani yo'q. Shunga qaramay so'ngi 20 yil ichida drama yaratilmay ham qolmadi, sahna bo'shab ham qolmadi, ozmi-ko'pmi tomoshabin teatrga ham kirib turdi.

Har bir ijodkor ma'lum bir narsani, mavzuni tanlab oladi. Bu huddi homila kabi uning ichida, ongida rivoj topadi, obrazlar, voqealar tizmini xayolidan o'tkazib, g'oyasini pishiradi. Muallif tarafidan bo'lajak asar uchun mavzu tanlab olinganidan so'ng uning oldida keyingi muammo ko'ndalang bo'ladi. Bu masala asarning tuzilishini aniqlashdan ibirat. Albatta asarning qurilishi, ya'ni tarkibini belgilash ham ancha ma'suliyatli sanaladi. Bu o'rinda muallif asari kompozitsiyasini tuzib olish harakatiga tushib qoladi. Aslida kompozitsiya so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, u o'zbek tilida tuzilish, qurilish sifatida ma'no anglatadi. Asar kompozitsiyasi nafaqat voqealar tizimi bilan balki so'zlar qurilishi, ularning berilishi bilan ham bog'liq.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, dramaturgiya har doim insonga murojat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo'lishining ahamiyati yo'q. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq kerak. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil etilishi, musiqa maktablarida, madaniyat markazlarida yosh qalamkashlar to'garaklari doimiy tarzda

fa'oliyat yuritishi, bu albatta har bir ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar sanaladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

1. Y.Solijonov. "Hozirgi adabiy jarayon". T. "Innovatsiya-Ziyo". 2020.
2. Matluba Isokova. "Dramaturg mahorati". T. 2021.
3. To'laxo'jayova.M., Qozoqboev. T. "Drama nazariyasi".T. Fan va texnologiyalar markazi. 2014.
4. Sirojiddinov SH. O'zbek mumtoz adabiyotining falsafiy sarchashmalari –T.: Yangi asr avlodi. 2011.